

“Rahbar va xotin-qizlar” uchrashuvi o‘tkazildi

// 17.12.2024

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/rahbar-va-xotin-qizlar-uchrashuvi-o-tkazildi>



“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ boshqaruv raisi To‘lqin Zaripov rahbarligida korxonadagi xotin-qizlar masalalariga qaratilgan “Rahbar va xotin-qizlar” uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Unda gender tenglik tamoyillariga amal qilgan holda korxonada faoliyat yuritib kelayotgan xotin-qizlarni mutaxassis va rahbar lavozimlariga tavsiya qilish hamda ulardan zaxira kadrlarni tayyorlash, xorijiy tillarni o‘rganishga keng jalb qilish, oliy ta‘limda o‘qish imkoniyatini yaratish kabi mavzularda so‘z yuritildi.



dehkanabadpotashplant



uz-potash.uz



(+99875) 612-50-05

Bundan tashqari 2025-yilda xotin-qizlarni jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy faolligini yanada oshirish va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida bir qator maqsadlar belgilab olindi.

Samimiy tarzda o'tgan muloqot nihoyasida xotin-qizlar fikr-mulohazalari va takliflari tinglandi, ularni qiziqtirgan savollarga mas'ullar tomonidan atroflicha javob berildi.



dehkanabadpotashplant



uz-potash.uz



(+99875) 612-50-05

"Dehqonobod kaliy zavodi" AJ Matbuot xizmati